

**O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH****Dadabayeva Hayotxon Faxridin qizi***O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti 2-bosqich talabasi.*

O'zbekistonda ham turizm milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Hozirgi kunda O'zbekistonda milliy turizm modeli rivojlanish bosqichida bo'lib, unda o'zbek xalqining mentaliteti - sharqona mehmondo'stlik va g'arb xizmat standartlarining uyg'unlashuviga erishishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Turizm sohasida yuz berayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mazkur sohada bozor munosabatlariga asoslangan turizm modelini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shunga qaramasdan hozirgi kunda mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi ancha past. Respublikamizda mavjud 8 mingdan ortiq madaniy va tabiiy meros obyektlaridan atigi 5-8 foizidan turistik maqsadlarda foydalaniladi, xolos.

Yurtimizning geografik tuzilishi juda xilma-xildir. Ya'ni sharqda Tyan-Shan tog'larining shohobchalari (davomi), janubda Turkiston, Hisor tog'lari o'rtada esa Zarafshon, Nurota tizma tog'larining suvli hamda ko'kalamzor maydonlarida aholi ko'proq yashaydi. Shu sabab u yerlarda dam olish, hordiq chiqarish, sog'lomlashtirish maskanlari ko'plab qurilgan. Respublikaning g'arb va shimol tomonlari cho'l-sahrolar bilan tutashgan bo'lsada past, yassi tog'lar bilan o'ralib, Chimqo'rg'on, Arnasoy, Kattaqo'rg'on kabi suv omborlari, katta-kichik sun'iy ko'llarning nam havosi ekologik jihatdan tabiiy muvozanatni saqlab turadi. Orol dengizi muammolari ham asta-sekin hal qilinish arafasidadir. Respublikamizda turizmning shakllanishi va rivojlanishi haqida bir qator ilmiy-ommabop kitoblar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratilgan. Ular orasida mutaxassis olimlar R.Abdumalikov, T.X.Xoldarov va boshqalar tomonidan tayyorlangan dasturlar, o'quv-qo'llanmalar muhim ahamiyatga ega. Respublika turizmi tarixida I.G'.Xolmurodov, V.I.Kucheryavix (Samarqand), V.Ratsek, A.V.Kolbinsev (Toshkent) kabi iqtidorli mutaxassislarning o'rni e'tiborga loyiqdir. O'zbekistonda turizmni rivojlanishi yuqoridan berilgan ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatib keldi. Endilikda davr talablariga mos ravishda tarixiy shaharlarga sayr (ekskursiya) uyushtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu yo'lda katta-katta shaharlar va chet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilarni Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda qabul qilish, ularga madaniy xizmat ko'rsatish borasida yuqori tajribalarga erishildi. Mahalliy sharoitda o'quvchi-yoshlar va talabalarning sayr-sayohatlarini uyushtirish ham yuqori saviyada amalga oshirildi. Ayniqsa, yoshlarni markaziy shaharlardagi (Samarqand, Buxoro, Xiva va hakazo) tarixiy-madaniy joylar bilan tanishtirishda katta faoliyat ko'rsatildi. Turizm ishlari asosan jamoatchilik asosida boshqarilmoqda. Ya'ni yirik shaharlar va viloyat markazlarida tashkil etilgan turistik klublar, turizm harakatining asosini tashkil etdi. Ilg'or tajriba va imkoniyatlarga ega

bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda ba'zi bir umumta'lim maktablarda turistik klub (seksiya) tashkil etilgan. Ularning faoliyatida ommaviy piyoda yurish sayohati va turizm bo'yicha musobaqalar (slyot) tashkil etish, viloyat hamda respublika musobaqalarida ishtirok etish ustuvor turar edi. Bunday jamoalarda turistik faollarni (aktiv) tayyorlashga ham alohida e'tibor berilgan. Respublika turizmining rivojlanish tarixida Samarqand sayohatchi-tashkilotchilarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu to'g'rida R.Abdumalikov va T.X.Xoldarovlarning ba'zi bir ma'lumotlari bilan tanishish maqadga muvofiqdir. Samarqand eng qadimiy shahar sifatida tarixiy obidalarga boy bo'lishi bilan jahonga mashhurdir. Shu sababdan bu yerga eramizdan oldingi 327-yilda bosqinchilik maqsadida kelgan Aleksandr Makedonskiy talon-tarojlik bilan shug'ullangan bo'lsada, 1865–1870-yillarda rus bosqinchilari, sobiq ittifoq davrida esa markaz rahbarlari ham shaharni va baland minoralarni ko'rib lol qolishgan. Umuman olganda, Samarqand o'zining qadimiy arxitektura qurilishi va tarixiy madaniy obidalari orqali yurtimizning shon-shuhrati hisoblanadi. Shu sababdan o'tgan davrda ta'lim muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarida tashkil etilgan sayr (ekskursiya) va piyoda yurish turizmi mazmun va mohiyat jihatdan e'tiborga loyiq. Turizm bugungi kunda tez rivojlanayotgan va daromadi bo'yicha yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda turizm jahon eksportida o'zining ulkan hissasiga ega bo'ldi va butunjahon yalpi ichki mahsulotining 11%ini tashkil qilmoqda. So'nggi 40 yil davomida boshqa mamlakatlarga tashrif buyuruvchi turistlar soni 20 martaga turizmdan keluvchi daromad 60 martaga oshdi va xalqaro turizmdan olinuvchi daromad 400 mlrd dollarga etdi. Xususan, O'zbekistonda erishilayotgan muvaffaqiyatlar zaminida iqtisodiyotni liberallashtirishni chuqurlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, barcha sohalarni, xususan, hizmat ko'rsatish sohasining etakchi tarmoqlaridan biri bo'lgan turizmni ham barqaror rivojlantirish yotibdi.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirish, turistik salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishiga, valyuta tushumining o'sishiga, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyalashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada Saudiya Arabistoni tajribasini umumlashtirish xalqaro turizmni quyidagi yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi:

- turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar va xalqaro kreditlarni jalb qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

- yangi mehmonxonalar, kempinglar, turbazalar, otellar, motellar qurish va mavjudlarini ta'mirlash hamda zamonaviylashtirish hisobiga turizmning xalqaro

talablarga javob bera oladigan moddiy-texnika bazasi va zamonaviy xalqaro turizm infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish;

- aeroportlarda, temiryo'l vokzallarida, avtobus stansiyalarida xalqaro terminallar qurish, ularni ta'mirlash va kengaytirish, shuningdek, barcha turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy kommunikatsiya tizimlarini barpo etish;

- xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, ustaxonalar, an'anaviy milliy buyumlar, suvenirlar va turistlar tomonidan talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

- respublikamizning tabiiy, iqtisodiy va tarixiy salohiyatidan kelib chiqqan holda turizmning turli shakllari — ekskursiya va o'rganish turizmi, arxeologik turizm, rekreatsion turizm, sarguzasht turizmi, ekzotik turizm, ekologik turizm, konferens-turlar, diniy turizm, etnik va nostalgiya turizmini rivojlantirish;

- turizm sohasini axborot bilan ta'minlash va turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida respublikamizning turistik imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni internet saytlari orqali xorijiy mamlakatlarga tarqatishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. World tourism barometer. Volume 18, Issue 2, May 2020.
2. www.e-unwto.org. International Tourism Highlights. 2020 Edition.
3. Usmanova, S., & Rikhsiyeva, G. (2017). Intercultural Communication. Tashkent State Institute of Oriental Studies.